



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY
TA'LIMI FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI



TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

**“Maxsus va inklyuziv ta’lim an’ana, tajriba va
innovatsiyalar ”
mavzusidagi Respublika anjumani**

27-oktabr 2023-yil



Toshkent - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika va
inklyuziv ta'lim fakulteti tomonidan 2023-yil 27 oktabr**

**«MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM:
AN'ANA,TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR»
MAVZUSIDA RESPUBLIKA ANJUMANI
TEZISLARI TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2023

TO'PLAB NASHRGA TAYYORLOVCHILAR

Shoaxmedova S.K., Mamatkulova L.T., Alimova K.X,
Logopediya kafedrasi o'qituvchilari

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Ayupova M.Y,
Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya kafedrasi professori p.f.n

Axmedova Z.M,
Logopediya kafedrasi dotsenti p.f.n.

Abidova N.Z,
Logopediya kafedrasi dotsenti., PhD

Bozorov O.Y,
Logopediya kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Gapurova D.T,
Logopediya kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Mamatova A.B,
Logopediya kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Xusniddinova B.X,
Logopediya kafedrasi o'qituvchisi

tab-internatlari o'quvchilari o'rtasida "Shaxmat", "Yengil atletika", "Quvnoq estafeta" sport musobaqalarining Respublika final bosqichi o'tkazildi. Natijalarga ko'ra:

-  -o'rinni Navoiy viloyati;
-  -o'rinni Buxoro viloyati;
-  -o'rinni Qoraqlpog'iston Respublikasi jamoalari g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

G'olib bo'lgan jamoalar Markaziy kengash tomonidan diplom, medal, va qimmat baho sovg'alar bilan taqdirlandilar⁴.

Bundan tashqari sportchilarimiz o'qishlari uchun prezidentimiz oliy ta'lim muassasalarini ham eshiklarini keng ochib qo'ydi. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2017 yil 1-dekabrda PF-5270-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2-iyundagi 417-son qarori asosida "Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan 2018-2019 o'quv yilidan boshlab barcha oliy o'quv yurtlarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 2% kvota asosida I-II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar o'qishga qabul qilinib kelinmoqda⁵.bu nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatda o'qish va ishlash huquqiga ega ekanligini yorqin dalili.

Har qanday ruhiy, jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi. Hech kim to'xtab qolishi kerak emas. Har bir inson rivojlanishi, barkamol topishi, kelajagiga yuksak ishonchi bo'lishi kerak. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miziyoyev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda bir oddiy haqiqat barchamiz uchun ayon bo'lishi kerak: oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib o'sib kelayotgan farzandlarimizni qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"⁶. Inson avvalo ma'nan so'ng esa jismonan sog'lom bo'lishi kerak. Chunki ichki dunyosi chiroyli bo'lmasa, jismonan sog'lom bo'lishini keragi yo'q. Ichki dunyosi sog'lom bo'lgan inson hamisha barcha to'siqlarni yengib o'tadi, garchand u juda qiyin bo'lsa ham. Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi. Hamma jamiyatda o'z o'rnini topishi, o'z yo'nalishini topishi kerak. Bola tug'ilganidan boshlab uni tarbiyalar ekanmiz, uni dinini, e'tiqodini mustahkam qilib tarbiyalashimiz va ta'lim berishimiz zarur. Nima mumkin yoki nima mumkin emasligini yoshligidan ongiga singdirib borsak, u ulg'aygan sari o'z tengdoshlarini ham shu narsaga o'rgatib boradi. Jismoniy tarbiya va sportga muntazam jalb etilsa, anamal o'quvchilarni ijodiy, ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishni kengaytirilsa va ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirilsa, albatta, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNING SPORT MASHG'ULOTLARIGA MOSLASHISHI. (n*f py/l sh bn h iy q a ' И я п т п я) R.S.SALAMOV, M.X.MIRJAMOLOV
2. <https://www.samdu.uz/uz/news/17499>
3. <https://xabardor.uz/uz/post/amirsoy>
4. <https://www.facebook.com/uzedu/posts/3039676822974256>
5. M.X.MIRJAMOLOV ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT (o'quv qo'llanma
6. Sh.Mirziyoyev- Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Toshkent -"O'zbekiston", 2017,4-bet

Temurova Gulchehra Xudaykulovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası

p.f.f.d.(PhD) v.b.dotsenti

Anorboyeva Zarifa G'ofur qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası

Surdopedagogika yo'nalishi

(Surdotarjimonlik) talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA IDROKI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Anotatsiya: maqolada kar va zaif eshituvchilarning xususiyatlari, ta'lim-tarbiya olish jarayoni, ushbu jarayonning o'ziga xosligi, ular uchun tashkil etilgan maktablarda dars jarayonlarining turli uslub va metodlardan foydalangan holda tashkil etilishi, o'qituvchilarning bu jarayonda bevosita tutgan o'rni haqida yoritib beriladi.

Аннотация: в данной статье рассмотрены особенности глухих и слабослышащих, процесс воспитания, своеобразие этого процесса, организация учебного процесса в школах, созданных для них с использованием разных методов и методов, непосредственная роль учителей в этом. Процесс будет объяснен

Abstract: in this article, the characteristics of the deaf and hard of hearing, the process of education, the uniqueness of this process, the organization of lesson processes in schools established for them using different methods and methods, the direct role of teachers in this process will be explained about rni.

Kalit so'zlar: kar, zaif eshituvchi, kech kar bo'lganlar, idrok, xotira, eshitish, daraja, tovush, bo'g'in, bog'langan nutq, so'z, nutq, ravon nutq.

Ключевые слова: глухой, слабослышащий, поздняя глухота, восприятие, память, слух, уровень, звук, слог, связная речь, слово, речь, беглая речь.

Key words: deaf, hard of hearing, late deaf, perception, memory, hearing, level, sound, syllable, connected speech, word, speech, fluent speech.

“Idrok – predmet va hodisalarni ularning farqli belgilarini anglash natijasida to'laligicha aks ettirishdir”.

Idrok idrok etilayotgan obektni o'rganish, uning obrazini qurish bilan bog'liq harakat vositasi-da amalga oshadi.

Idrok – bola hatti-harakatida aks ettiruvchi, boshqaruvchilik funksiyasini bajaruvchi juda murakkab, tizimli, ko'p pog'onali jarayondir. Idrok sezgi organlariga bevosita ta'sir etuvchi predmet yoki hodisaning subektiv obrazining shakllanish jarayoni sifatida ham, mazkur obraz sifatida ham, inson analizatorlariga ta'sir etuvchi predmet bilan tanishishga yo'naltirilgan harakat tizimi sifatidaham talqin etiladi (A.G.Ruzskaya).

Sensor rivojlanish – bu bolada atrof-olamdagi predmet va hodisalar haqidagi idrok va tasavvur jarayonlarining rivojlanishidir.

Ko'ruv idroki bolaning ruhiy rivojlanishida, unda atrof-olamdagi predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Ko'ruv idroki – bu murakkab jarayon, mazkur jarayonda ko'zga ta'sir etuvchi katta miqdordagi qo'zg'atuvchilar tahlili amalga oshadi. Ko'ruv idroki qanchalik mukammal bo'lsa, his etish sifat va kuchiga ko'ra shunchalik turli-tuman bo'ladi, ya'ni, qo'zg'atuvchini shu qadar to'liq, aniq, differensial aks ettiradi. Atrof-olam haqidagi axborotlarning asosiy miqdorini inson ko'rish qobiliyati tufayli oladi.

Idrokning predmetlilikini shakllantirish bolaning predmet- amaliy faoliyati jarayonida amalga oshadi. Bola obektni qo'llari bilan paypaslab, uni ko'zdan kechirar ekan, taktil-motor va ko'ruvning o'zaro birligi asosida idrokning predmetlilikining shakllanishi yuz beradi.

Demak, idrok – maktabgacha yoshdagi yetakchi bilish jarayoni bo'lib, umumlashtiruvchi funktsiyani bajaradi:

birinchidan, idrok predmetlarning sifatini predmetning to'laqonli obraziga birlashtiradi;

ikkinchidan, idrok barcha bilish jarayonlarini axborotlarni qayta ishlash va qabul qilishda birligidagi o'zaro kelishilgan ishda birlashtiradi;

uchinchidan, idrok atrof-olam haqidagi barcha olingan tajribani predmetlarning tasviri va obrazi shaklida birlashtiradi va olam haqidagi to'laqonli tasavvurni shakllantiradi.

Idrok jarayonining mohiyati shundaki, u tashqi olamdan axborotlarni olish va birlamchi qayta ishlash, ya'ni predmetlarning alohida sifatlarini, aynan predmetlarning o'zini, ularning xususiyati va mohiyatini taniy bilish va farqlash imkonini beradi. Idrok bir predmetni boshqa predmetdan ajrata bilishga, biron-bir predmet yoki hodisalarni boshqa qator unga o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan predmetlardan ajratishga yordam beradi.

Bola tayyor sezgi organlari bilan dunyoga keladi: unda ko'z, quloq mavjud, uning terisi predmetlarni his qilish imkonini beruvchi sezgirlikka ega.

Bu atrof-olamni idrok etish uchun bo'lgan dastlabki shart-sharoitlar xalos. Atrof-olamda to'g'ri mo'ljal olish uchun nafaqat har bir alohida predmetni (stol, gul, kamalak), balki biron-bir vaziyatni, biron-bir predmetlarning kompleksini (o'yin xonasi, rasm, jaranglayotgan kuy) yaxlitligicha idrok etish muhim. Idrok predmetlarning alohida belgilarini umumlashtirishga va yaxlit obrazni hosil qilishga yordam beradi – ya'ni bu inson tomonidan atrof-olamdagi predmet va hodisalarni ularning sezgi organlariga bevosita ta'siri natijasida aks ettirishi jarayonidir. Hatto biron-bir oddiy predmetni idrok etish ham sensor (sezgi), harakat va nutq mexanizmining ishtirokini talab etuvchi juda murakkab jarayondir.

Sensor rivojlanish to'laqonli kechishi uchun, maqsadga yo'naltirilgan sensor tarbiya lozim. Bolani ko'zdan kechirishga, paypaslashga, tinglashga o'rgatish, ya'ni unda perseptiv harakatni shakllantirish lozim.

Rangni idrok etish shakl va kattalikni idrok etishdan farq qiladi, mazkur tafovut shundaki, bu sifat sinov va xatolar yo'li bilan amaliy tarzda aniqlanmaydi. Rangni albatta ko'rish lozim, ya'ni rangni idrok etishda faqatgina ko'ruv, perseptiv mo'ljal olishdan foydalanish mumkin.

Idrokning rivojlanishi perseptiv harakatlarni – ya'ni, inson tomonidan idrok etish jarayonining tuzilish birliklarini shakllantirish yo'li bilan amalga oshadi. Perseptiv harakat biron-bir sifatlarini ongli ajratishni va predmetlar olamiga adekvat bo'lgan obrazni hosil qilish imkonini beruvchi sensor axborotni o'zgartirishni ta'minlaydi. Perseptiv harakat predmetli harakat bilan uzviy bog'liq.

Idrokning rivojlanishida perseptiv harakatlar obektlarni umum qabul qilingan o'lchovlar – sensor etalonlar bilan taqqoslash va tekshirish harakatlari hisoblanadi.

Insoniyat kattalik, shakl, ranglarning ma'lum etalon tizimini ajratgan. Ularning cheksiz xil-

ma-xilligi asosiy turlarning hosil bo'lishiga olib kelgan. Shu singari tizimni egallar ekan, bola ma'lum o'lchov, etalonning to'plamiga ega bo'ladi, hamda ular yordamida har qanday yangitdan idrok etilgan sifatni taqqoslay oladi va unga tegishli ta'rifni bera oladi. Bunday turlar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirish bolaga o'rab turgan voqelikni optimal idrok etish imkonini beradi.

To'liq idrok – o'rab turgan predmetlar olamida to'g'ri mo'ljal olishning muhim shartidir. Idrokning sekinlashganligi, nodifferensialligi, idrok etish hajmining torligi, analitik-sintetik faoliyatning buzilishi, xotiraning o'ziga xosligi singari eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar uchun xarakterli bo'lgan kamchiliklar ularga atrof-olam bilan tanishishni murakkablashtiradi. Izlash funksiyasining buzilishi va sezgi organlari orqali kelayotgan axborotlarni qayta ishlash jarayonining sekinlashganligi taklif etilayotgan materialni noto'liq, noturg'un va har doim ham to'g'ri qabul qilinmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, eshitishda kamchiligi bo'lgan bolaning sensor rivojlanishi umuman olganda shakllanish muddatiga ko'ra sezilarli darajada orqada qoladi va juda notekis kechadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar idrokining takomillashmaganligi idrok qiluvchi apparatlarning nuqsonlari bois emas, balki idrokning murakkab ruhiy jarayon sifatidagi buzilishlaridadir.

Idrok jarayoni qator sifatlar biln xarakterlanadi. Har qanday modallikni idrok etish uchun tanlash, ya'ni bolaning qiziqishlari, faoliyati va diqqati sohasi doirasida bo'lgan obektlarnigina ajrata olish xos.

Predmetlilik – idrok jarayonining asosiy natijasi bo'lib, uning darajasi obekt qanchalik to'liq va ongli idrok etilgani, idrok davomida uning tizimi aks etganligi bilan belgilanadi.

Idrokning normal faoliyat ko'rsatishi uchun konstantlilik, ya'ni obektni uning joylashish, uzoqlilik, yoritilganlik va sh.o' boshqa idrok etish sharoitlaridan qat'iy nazar taniy olish qobiliyati xos.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sifatlar eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda qanday ifodalanishini ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda mazkur kategoriyadagi bolalarning ko'ruv idroki nisbatan o'rganilgan hisoblanadi. Aniqlanishicha, idrok predmetli xarakterga ega, ya'ni predmetning barcha sifatlari predmetning o'zidan ajratib olinmaydi. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bola nisbatan yorqin sifatlarnigina, ba'zan esa predmetni boshqa predmetlardan farqlaydigan birgina sifatiga ko'ra ajratadi. Ko'zdan kechirilayotgan obektda alohida qismlar "tortib olinadi", bunda umumiy tushuncha uchun muhim bo'lgan material yetarli baholanmaydi, bu esa idrok hajmining torligini tasdiqlaydi. Idrokning tanlash xususiyati buzilgan: eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar uzoq muddat asosiyni ajrata olmaydilar, uning qismlari o'rtasidagi ichki aloqalarni tushuna olmaydilar, qiyinchilik bilan vaziyatda mo'ljal oladilar. Faqatgina amaliy faoliyat jarayonidagina ularda asta-sekinlik bilan sifatni predmetning o'zidan ajrata bilish, turli predmetlardagi o'xshash sifatlarni, birgina predmetdagi farqliklarni ko'ra bilish qobiliyati rivojlanadi.

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar uchun idrok etishning umumlashganligining buzilishi xarakterli hisoblanib, bu tasavvurlarning kambag'alligi, yetarlicha aniq emasligi, xususiy va tasodifan yodda saqlanib qolinganlarning mavjudligida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, psixologlar (P.B.Shoshin va b.) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur bolalarning idrok etish tezligi optimal shart- sharoitlardan har qanday chetga chiqish hisobiga sezilarli darajada pasayadi: yetarlicha yoritilmaganlik, predmetning odatdan tashqari burchak ostida burilishi, kontur, yopiq tasvirlar, signallarning (obektlarning) tez-tez o'zgarishi, bir nechta signallarning bir vaqtning o'zida paydo bo'lishi (ayniqsa eshituv idrokida) singari. O'girilgan, turlicha joylashtirilgan predmet tasvirlarini idrok etishda ko'pgina xatolarga yo'l qo'yiladi (K.I.Veretsotskaya). Chizgilarga ko'ra o'xshash harflar va ularning alohida elementlari har doim ham farqlanmaydi va ko'pin-

cha chalkashtiriladi. Mazkur dalillar ko'ruv analizatorining analitik-sintetik faoliyatining nisbatan murakkab shakllari o'z rivojlanishida nisbatan sodda shakllardan ortda qolishini anglatadi.

Psixolog olim I.M.Solovevning ta'kidlashicha, voqelikning ko'p predmetli doirasi bunday bolalar uchun "kam predmetli" hisoblanadi. Ko'rishning sustligi nigohning o'ziga xosliklari bilan tushuntiriladi: normal rivojlanishga ega bola bir zumda ko'rganlarini eshitishda kamchiligi bo'lgan bola ketma-ketlikda ko'radi, demakki, kamroq idrok etadi va ko'proq detallarni "yo'qotadi". Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarning yetarlicha faol emasligi, maqsadga yo'nalganlikning sustligi predmet yoki hodisani to'laligicha ko'zdan kechirishga, uning barcha sifatlarini ajratishga bo'lgan istakning mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Ko'ruv o'tkirligining pasayishi kuzatiladi, bu obektda unga xos bo'lgan sifatni ajratish imkonini bermaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xosliklar ranglarni farqlashda namoyon bo'ladi. J.I.Shifning ta'kidlaganidek, eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar o'z tengdoshlariga nisbatan ranglarni ancha kech farqlaydilar.

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar ko'ruv idrokining o'ziga xosligi syujetli rasmlarni ko'zdan kechirishda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Mazkur rasmlarni tushunish noto'liq, yuzaki, qator hollarda esa noadekvat bo'ladi (I.M.Solovev, N.M.Stadnenko).

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar o'z idroklarini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtira olmaydilar. Misol uchun, likobcha ustiga to'ntarilgan chashkani ular qo'ziqorin deb idrok etadilar. Mazkur holatda ular javoblariga qarshilik qiladigan ahamiyatli detallarni sezmaydilar. Bunga sabab idrokning sxematikligi, soddalashganligi, perseptiv faoliyatning shakllanmaganligidir.

Ko'ruv idrokining differensiallashmaganligi predmetlarni rangi, shakli, hajmiga ko'ra farqlashdagi qiyinchiliklarga olib keladi. J.Shif, V.G.Petrova, T.M.Golovinaning ko'rsatishicha, eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar predmetlarning hajmi va rangini yaxshiroq, uning materiali va shaklini yomonroq idrok etadilar.

Ko'ruv obrazlari har qanday boshqa ruhiy obrazlar singari ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ular aks ettirishning uch darajasini o'z ichiga oladi: sensor–perseptiv daraja, tasavvur darajasi va verbal–mantiqiy daraja. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda ko'ruv orqali aks ettirishning har qanday darajasining shakllanishi buzilgan (E.S.Beyn, K.I.Veressotskaya va b.). Asosiy buzilishlarni qisqa tavsiflar ekanmiz, ta'kidlash joizki, bunday bolalarda ko'ruv orqali aks ettirish kambag'allashgan, ko'pincha buzilgan va noturg'un. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar obektda uning tarkibiy qismlarini, mutanosibliklarini, tuzilishining o'ziga xosliklarini qiyinchilik bilan ajratadilar, muhim jihatlarni e'tibordan chetda qoldiradilar, har doim ham rang va rang jilolarini ajratmaydilar. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda ko'ruv tasavvuri real predmetlardan sezilarli farq qiladi. Ko'pgina noaniqliklar o'zgartirilgan sharoitlarda (predmetlarning yangi rakursi) va bir nechta o'xshash obektlarni idrok etishda namoyon bo'ladi. Bunday bolalarda pedagogning boshqaruvchilik ishtirokisiz hosil bo'lgan tasavvurlari kambag'al, noaniq, qismlardan iborat, xatoliklarga ega. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'rganilayotgan obektlarning tavsifi maxsus ta'limsiz shakllanmaganligi bois aziyat chekadi.

Idrokining aniqligi, xotirada ko'ruv obrazining saqlanishi oxir-oqibat yozuv va o'qish malakalarining shakllanish samaradorligini belgilaydi. Ko'ruv idrokining buzilishlari shakllar, harflar, sonlar, ularning hajmi, qismlarining o'zaro nisbatini ajratish, konfiguratsiyasiga ko'ra yaqin bo'lgan yoki oynali elementlarning farqi va o'xshashligini aniq differentsiatsiya etishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Shuni ta'kidlash joizki, ko'ruv idrokining shakllanmaganligi ma'lum miqdorda shunga bog'liqki, bu alohida olingan ko'ruv yoki motor funksiyaning tanqisligi emas, balki mazkur funksiyalarning integrativ o'zaro ta'sirining tanqisligidir.

Idrokining yetarlicha rivojlanmaganligi fazoda mo'ljall olishning shakllanishining orqada qolishiga olib keladi. Ko'ruv-fazoviy idrokda ko'z harakat tizimi – uning tezligi, ko'z harakat reaksiyalari, har ikkala ko'zdagi nigohning konvergensiya etish qobiliyati, binokulyar ko'ruv katta rol o'ynaydi. Ko'z harakat tizimi obektlarning ko'ruv doirasidagi holati, obektlarning kattaligi va uzoqligi, ularning harakati, obektlar o'rtasidagi turli nisbatlar singari fazoviy sifatlarning o'zgarishini tahlil etish va baholashda ishtirok etadi. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar ko'ruv-fazoviy idrokining tanqisligi uning o'tkirligi, perseptiv doirasi, ko'z orqali chamalash singari ko'rishning turli funksiyalarining o'zaro faoliyatining to'laqonli emasligi bilan tushuntiriladi. Biroq amaliyotning ko'rsatishicha, maqsadga yo'naltirilgan va tizimli ishda ko'ruv va ko'ruv-fazoviy idrok yetishmovchiliklarini ma'lum miqdorda kamaytirish mumkin. Mazkur ish quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilishi kerak:

- o'rab turgan voqelikdagi predmet, obekt va hodisalar, ularning fazodagi holatining adekvat ko'ruv obrazini shakllantirish;
- ko'ruv idroki va ko'ruv xotirasining hajmi, aniqligi va to'liqligining kengaytirilishi;
- obektlarni kuzatish (jumladan harakatlanayotgan), ularni ko'rish orqali tekshirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ko'ruv-harakat koordinatsiyasini takomillashtirish;
- ko'rish orqali idrok etilayotgan predmet va obektlarni, ularning sifatlarini, voqelikdagi hodisalarni verbal tasvirlab berish malakalarini shakllantirish.

Bolalarning normal rivojlanishida maktabgacha yoshning so'ngiga qadar ranglarni idrok etish quyidagi bosqichda kechadi:

- rangni belgi sifatida ajratish, predmetlarni mazkur belgilarga ko'ra farqlash;
- rasmdagi rangli predmetni topish imkoniyatini beruvchi rangni taniy olish;
- predmetning rangini faol aniqlash.

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarda rangni predmetning belgisi sifatida ajratish ko'nikmasi ma'lum kechikish bilan shakllanadi (mazkur bolalarning ba'zilar buni hatto kichik maktab yoshining avvalida bajara olmaydilar), ularga hatto asosiy ranglarning nomini (qizil, ko'k, yashil, sariq, jigarrang, qora, oq) o'zlashtirish ham murakkab.

Shunday qilib, ko'ruv doirasining buzilishi asosan ko'ruv obrazlarining differensiallashmaganligida, ko'ruv izlarining inertligi va nomustahkamligida, shuningdek, so'zning ko'ruv orqali tasavvur qilingan predmet bilan mustahkam va adekvat bog'liqligining mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xosliklar deyarli har qanday idrok turi uchun xos bo'lib, mavjud ilmiy tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. V.I.Lubovskiyning ta'limotiga ko'ra, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun axborotni qayta ishlash tempi va sifatining pasayishi, obraz va tushunchalar shakllanishining chegaralanganligi va noto'liqligi xos. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarning qidiruv harakatlari impulsivlik, xaotiklik bilan xarakterlanadi. Bolalar qanday sezgini (eshituv, ko'ruv, taktil va b.) ishga solmasinlar, obektni tekshirishda rejalashtirish mavjud bo'lmaydi. Eshitishda kamchiligi bo'lgan bola sensor rivojlanishidagi nuqsonni nisbatan katta yoshda kompensatsiya etish murakkab, ba'zan esa hatto mumkin ham emas. Bu sensor tarbiyani eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalar faoliyatining har xil turlariga kiritish lozimligi haqida dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.YU, Xamidova M.P. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi. O'quv qo'llanma. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" – T.: 2019
2. Mo'minova L.R, Amirsaidova S.H.M, Mamarajabova Z.N, Xamidova M.U, Yakubjonova. D., Djalolova Z., Abidova N. "Maxsus psixologiya". T.: 2019

3. Po'latova P., L. Nurmuxamedova, SH.Amirsaidova va boshqalar. «Maxsus pedagogika» T.: 2014.
4. L.S. Tsvetkova "Bolalarni diagnostik neyropsikologik tekshirish usullari"; M, 2021 yil
5. G.X.Temurova. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal Volume 2020 Issue 1 Article 45 12-15-2020 temurovag@jspi.uz111-117 bet
6. G.X.Temurova Issn 2181-9580 Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali 2020 2-son Jurnal
7. G.X.Temurova Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan. tdpujournal@mail.ru139-143bet
8. G.X.Temurova Issn 2181-9580 toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali 2020 2-son tdpujournal@mail.ru 166-170 bet
9. G.X.Temurova МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Нөкис// Қарақалпақстан, 2022 № 4/1 - 2022 жыл ISSN 2181-7138 27-33 бет
10. G.X.Temurova O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, -Тошкент, 2022, [1/8/1] ISSN 2181-7324 179-181бет
11. G.X.Temurova Бола ва замон. Тошкент, 2022-№3. Б 54-56. (13.00.03-№1) 59-61 бет bola-zamon@rambler.ru
12. <https://lex.uz/docs/-1866997?ONDATE=30.09.2019%20015>.

Inagamova Feruza Абдухакимовна
*O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish
va psixologik-pedagogik respublika
tashxis markazi metodisti*

ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI MAVJUD BOLALARNI IJTIMOIYLASHUVIDA MOTIVATSIYASINI OSHIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalarni ijtimoiylashuvda motivatsiyasini oshirishra таъсир этувчи омиллар келтирилган.

Kalitlar so'zlar: Inklyuziv, Ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv jarayoni

Respublikamizda inklyuziv ta'limni samarali joriy etish va alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning qulay yo'llarini aniqlash maqsadida, ta'lim muassasalari ta'lim olayotgan alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishning samaradorligini oshirish orqali bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish imkoniyatlari, shart-sharoitlari o'rganildi.

Alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalarning ijtimoiylashuvi bir tomonlama bo'lmaydi, albatta oila, maktab jamoasi, sinf jamoasi, mahalla va umuman jamiyatimizdagi har bir insonning qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyatga egadir.

Alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish ularning jamiyatda o'z-o'zlariga xizmat qilish va kasblarini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi jarayoni jamiyatda sog'lom odamlar orasida normal hayot kechira oladigan teng huquqli va erkin shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishini anglatadi.

"Ijtimoiylashuv" ma'lum yoshdagi kishilarning jamiyatdagi mavjud muhitga kirishishi, unga qo'shilishi, ijtimoiy subyektlar bilan o'zaro aloqa qilishi, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy tajribani egallashi (mavjud ilmiy, diniy, falsafiy va turli sohalarga oid bilimlarni o'zlashtirishi, ma'naviy-ax-